

## JAZOIR, TUNIS VA MISRDAGI MIGRATSIYA JARAYONLARI

Axmadov Nozimjon Furqat o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchi – stajyori

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Jazoir, Tunis va Misr davlatlaridagi migratsiya jarayonlarining tarixiy, siyosiy va iqtisodiy sabablari tahlil qilingan. Jazoir va Tunisda migratsiya avvalo Fransiya mustamlakachiligi davrida boshlangan bo‘lib, sanoatlashuv, urushlar va siyosiy beqarorlik bilan kuchaydi. Misrda esa migratsiya 1970-yillardan neft siyosati va “ochiq eshiklar” siyosati bilan faollashgan. Arab–Isroil mojarolari, “Arab bahori” inqiloblari ham migratsiyani kuchaytirgan. Maqolada ichki va tashqi migratsiya, mehnat resurslari harakati va diasporalar faoliyati keng yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** migratsiya, mustamlakachilik, mehnat migratsiyasi, siyosiy beqarorlik, sanoatlashuv, mehnat resurslari, diaspora, ichki migratsiya, tashqi migratsiya.

### ABSTRACT

*The article analyzes the historical, political, and economic causes of migration processes in Algeria, Tunisia, and Egypt. In Algeria and Tunisia, migration began primarily during the period of French colonization and intensified due to industrialization, wars, and political instability. In Egypt, migration became active from the 1970s with the oil policy and the “open-door” policy. The Arab–Israeli conflicts and the “Arab Spring” revolutions also contributed to the increase in migration. The article broadly covers internal and external migration, the movement of labor resources, and diaspora activities.*

**Keywords:** migration, colonialism, labor migration, political instability, industrialization, labor resources, diaspora, internal migration, external migration.

### KIRISH

Jazoir O‘rta Yer dengizi mintaqasidagi eng yirik davlatdir. Uning mintaqa tarixida o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Yuzdan ortiq barbar va boshqa qabilalar VII asrdan e‘tiboran islom dini ta‘siri ostida birlasha boshladi. Shundan so‘ng Jazoirda markazlashgan davlat tuzishga harakatlar boshlandi. Markaziy shaharlarning sekin – asta rivojlanib borishi natijasida mamlakat bo‘ylab ichki migratsiyaning ilk ko‘rinishlari boshlandi. Abbosiylar sulolasi hukmronligi davrida xalifalikning ko‘plab shaharlarida hayot darajasining o‘sib borishi shaharlarga mintaqaning ko‘chmanchi chorvador va qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan odamlarini chorlar edi. Bu esa xalifalik bo‘ylab ya‘ni mintaqaviy migratsiyani boshlab berdi va bu

jarayonlarda jazoirliklar ham ishtirok etdi. Jazoirida zamonaviy ko‘rinishdagi tashqi migratsiyaning boshlanishi uning Fransiya tomonidan mustamlakaga aylantirilishi bilan bog‘liqdir.

732 – yil Karl Martel Puat’eda arab qo‘shinlarini to‘xtatib qola olganligi bois O‘rta Yer dengizining shimoliy sohillari tomon arablarning tarqalib ketishi oldi olingan, jumladan Fransiya ham arablar ta’siridan saqlanib qolgan edi. XI – XIII asrlardagi salib yurishlar davrida arablar va fransuzlar yana bir karra uchrashishadi. XV – XVII asrlarda O‘rta Yer dengizida hukumronlik qilish maqsadida fransuzlar arab yerlariga rahna sola boshladi. Ushbu harakatlarning davomi sifatida 1798 – yil Bonapart Misrga yurishni amalga oshirdi. 1830 – yil 5 – iyulda qirol Karl X Jazoir ustidan protektorat o‘rnatishni boshladi. 1830 – 1847 – yillar orasida amir Abdul Qodir boshchiligidagi xalq harakatining mag‘lubiyatidan so‘ng Fransiya Jazoirni bosib olishga muvaffaq bo‘ldi<sup>1</sup>. 1848 – yil Fransiyadagi ikkinchi respublika Jazoir ustidan protektorat o‘rnatilganligini e’lon qildi. 1883 – yilda Tunis ustidan ham Fransiya protektorati o‘rnatildi. Asr so‘ngida 1895 – 1905 – yillarda Fransiya Shimoliy Afrikadagi o‘z mustamlakachilik siyosatini dastlab janubiy Sahara keyinchalik, Senegal hududlari tomon kengaytirdi. Tez orada mamlakatda boshlangan sanoat qurilishi, kommunikatsiya tizimlarining barpo etilishi ichki migratsiyaning boshlanishiga turtki bo‘ldi<sup>2</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Fransiya uchun mustamlaka hududlar nafaqat xom ashyo manbai balki, arzon ishchi kuchi ham hisoblanar edi. XX asrning boshlaridan Fransiyada “mustamlaka ishchilari” tushunchasi arzon ishchi kuchini anglatadigan bo‘ldi. Jazoir va Tunislik migrantlar Fransiya hududiga XX asrning dastlabki yillaridan olib kelina boshlandi. Ularning ommaviy tarzda kelishi birinchi jahon urushi bilan bog‘liqdir. 1914 – 1918 – yillarda jazoirliklar fransiyaga nafaqat arzon ishchi kuchi sifatida balki, harbiy sanoat va hattoki, harbiy frontda ishtirok etish uchun ham keltirila boshlandi. Birinchi jahon urushida 100 mingga yaqin jazoir va tunisliklar ishtirok qilishgan. 1915 – yil Germaniya tomonidan Iprda zaharli gaz qo‘llanishi natijasida 5 ming mag‘riblik zararlangan<sup>3</sup>.

Birinchi jahon urushida 240 000 jazoirliklar ishtirok qilishgan, ular nafaqat muqobil variant sifatida, balki har uchinchi jazoirlik harbiy sifatida ham janglarda

<sup>1</sup> Achrafi N. Following the Leader: a History and Evolution of the Amir abd al-Qadir al-Jazairi as Symbol // The Journal of North African Studies. – 2007. – Vol. 12, № 2, June. – P. 59.

<sup>2</sup> Byrnes M.K. French like us? Municipal policies and north African migrants in the Parisian Banlieues 1945 – 1975. – Washington, DC: Dissertation submitted to the Faculty of the Graduate School of Arts and Sciences of Georgetown University, August 11, 2008. – P. 35.

<sup>3</sup> Stora B. Algeria 1830–2000: A Short History. – Ithaca and London: Cornell University Press, 2001. – P. 48.

ishtirok qildi. Birinchi jahon urushidan so‘ng 240 000 jazoirluk ishchilar Fransiyada ishlashar edi. Fransiya hukumati jazoirluk ishchilarning mehnat samaradorligi yuqori ekanligi sababli ularni Fransiyada olib qolishdan manfaatdor edi. 1920 – yil Fransiyada shimoliy afrikaliklar soni 120 000 dan ortiqroq edi, ularning 100 ming nafari Jazoidan kelganlar edi<sup>4</sup>. 1925 va 1930 – yillar oralig‘ida Yevropada migrantlarning soni barqaror ravishda saqlanib turdi. Bu davrda o‘shish holati kuzatilmagan. Bunga sabab jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Yevropadagi ko‘plab ishlab chiqaruvchilarning o‘z ishlab chiqarishlarini mustamlaka mamlakatlarga ko‘chirib keta boshlagani edi.

1926 – yil Parijda birinchi musulmon masjidni ochiladi. Ushbu masjidning ochilishini Fransuz hukumati qo‘llab-quvvatlaydi. Tadbirda ishtirok qilgan hukumat vakillari birinchi jahon urushida ular bilan birga kurashganligi uchun musulmonlardan minnatdor ekanligini bildiradi. Shu yili masjid tarkibida “Parij masjidi musulmon instituti” tashkil qilinadi. Masjid ochilishida Marokash sultoni Mulla Yusuf ishtirok qiladi. Masjid ochilishidan bir oy o‘tib yangi konferensiya zalining ochilish marosimi uchun Tunisdan Said Muxammad al Xabibi poshsho tashrif buyuradi. Ushbu masjidning ochilishi go‘yoki Fransiya uchinchi respublikasining o‘z mustamlakalaridagi maqomini qonuniylashtirgandek va mustamlaka xalqlarga e‘tiqod erkinligi berilganligini namoyon qiluvchi bir vosita ham bo‘lishi kerak edi<sup>5</sup>.

1936 – yildan Fransiya o‘z mustamlakalaridan arzon ishchi kuchini jalb qilishga yana ehtiyoj seza boshladi. 1940 – yillardan boshlab Fransiya yana migrantlarni mamlakatga taklif qila boshladi. Urushdan keyingi qayta tiklash davrida migrantlar oqimi tezlik bilan o‘sa boshladi. Migrantlar orasida Jazoirluklar ko‘pchilikni tashkil qilardi, 1950 – yilda Fransiyada 200 ming jazoirluk migrantlar faoliyat olib borgan. 1954–1962–yillarda Jazoida davom etgan mustamlakachilikka qarshi urush davrida 400 mingdan 600 minggacha bo‘lgan jazoirluklar mamlakatni tark etishgan.

Jahon iqtisodiy inqirozi davrida 100 000 jazoirluk ishchilar Fransiyadan vatanlariga qaytarib yuborilgan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Fransiyada iqtisodiy va demografik sabablar tufayli migrantlarga nisbatan talab yangidan paydo bo‘ldi.<sup>6</sup> 1945 – yil 3 – mart kuni Sharl de Goll Fransiyada “erkaklar yetishmovchiligi” muammosi haqida gapirib, ushbu muammoni yuqori malakali migrantlar hisobidan qoplash borasida o‘z fikrlarini bildirgan. Ushbu ma‘ruzadan so‘ng mamlakatga Janubiy Yevropa (Italiya, Portugaliya, Ispaniya) dan migrantlar kelishi boshlandi.

<sup>4</sup>Любарт М.К. Арабы–мигранты в современной Франции // Меняющаяся Европа. Проблемы этнокультурного взаимодействия. – М., 2006. – Сс. 257–258.

<sup>5</sup> Левин З.И. Мусульмане–иммигранты на Западе // Мусульмане на Западе. – Сборник статей. – ИИИиБВ. – М., 2002. – С. 3 – 18.

<sup>6</sup> Stora B. Algeria 1830–2000: A Short History. – Ithaca and London: Cornell University Press, 2001. – P. 43.

Fransiyada migrantlarga nisbatan davlat miqyosidagi ehtiyojning paydo bo'lishi, o'z o'rnida Mag'rib davlatlaridagi migratsiya jarayonlariga ham ta'sir o'tkazgan. Ushbu siyosatning boshlanishi Jazoirliklarga Fransiyaga erkin kirib chiqish imkonini berdi. 1947 – yil 20 – sentyabrda jazoirliklarga ma'lum ma'nodagi Fransiya fuqaroligi berildi. Unda Jazoir departamentidan bo'lganlar tili, millati, irqiy va e'tiqodiy mansubligidan qattiq nazar fransuz fuqarolari bilan teng huquqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan<sup>7</sup>.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Fransiyada izdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklashda mehnat resurslariga nisbatan yuqori darajadagi talab ishchi kuchini import qilishni taqazo qilar edi. Fransiya ishchi kuchiga bo'lgan talabni o'zining mustamlakalaridan ishchi kuchi jalb etish siyosati bilan qondirishga harakat qildi. 1962 – yil imzolangan Evian shartnomasida Jazoir va Fransiya fuqarolariga har ikki mamlakat hududida erkin harakatlanish huquqi berildi. Fransiya hukumatining ushbu qarori migratsiya jarayonlari rivojida muhim bosqich bo'ldi.

1954 – yil Jazoirda mustaqillik uchun kurashning boshlanishi migratsiya jarayonlarini tezlashtirdi. 1962 – yilgacha davom etgan bu jarayonlarda urush harakatlari va siyosiy beqarorlikdan qochib minglab jazoirliklar, jumladan, Jazoirdagi yevropalik aholi mamlakatni tark etdi. 1962 – yil Jazoir mustaqilligining e'lon qilinishi ham jarayonlarni to'xtatmadi aksincha oshirdi. Mustaqillikdan so'ng o'rnatilgan siyosiy boshqaruvdan norozi bo'lganlar mamlakatdan ketishda davom etdi. 1973 – yil boshlangan neft inqirozi va Fransiya iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishi migratsiya jarayonlarida ham sezildi. Ma'lum vaqt migrantlar oqimi pasayib turdi. Valeri Jiskar d'Estenning 1973 – yil e'lon qilingan “oilani mustahkamlash” siyosati Jazoir migrantlari uchun yangi davrni boshlab berdi<sup>8</sup>.

1962 – yil ma'lumotlariga ko'ra Fransiyada 350 minggacha mag'riblik migrantlar rasmiy ro'yxatga olingan. 1950 – yildan 1960 – yilgacha bo'lgan o'n yillikda Jazoirda mustamlaka tuzumiga qarshi harakatlar boshlangan davrda emigrantlar soni muttasil o'sib bordi. 1954 – 1962 – yillarda bo'lib o'ttgan Jazoirdagi urush harakatlari emigrantlar sonining tezlik bilan o'sishiga olib keldi. Urush harakatlari davrida va undan keyingi qisqa davr ichidagi emigrantlar nafaqat iqtisodiy sabablar bilan balki siyosiy sabablar bilan ham mamlakatni tark eta boshladi. Bu davrdagi emigrantlarning asosiy qismini Jazoirdagi fransuz armiyasining (xaraki) a'zolari tashkil qilgan. 1964 – yil 10 – aprelda Fransiya hukumati migratsiya jarayonlarini tartibga solish va qisqartirish choralari to'g'risida qaror qabul qilgan.

<sup>7</sup> Деминциева Е.Б. Магрибинское сообщество во Франции: формирование диаспоры и политика интеграции // Восток (Orient). – 2008. – № 1. – С. 83.

<sup>8</sup> Byrnes M.K. French like us? Municipal policies and north African migrants in the Parisian Banlieues 1945 – 1975. – Washington, DC: Dissertation submitted to the Faculty of the Graduate School of Arts and Sciences of Georgetown University, August 11, 2008. – P. 143.

1968 – yil ushbu qaror asosida yillik migrantlar sonini aniq belgilab olish boshlandi va bu miqdor jazoirlar uchun yiliga 35 ming qilib belgilandi<sup>9</sup>. 1971 – yilga kelib bu kvota qisqartirildi va 25 ming qilib belgilandi.

Migratsiya jarayonlarining o‘ziga xos tomoni shundaki, ko‘p hollarda bu jarayon tarixiy vaziyatning oqibati sifatida shakllanadi. Ushbu fikrni Jazoirdagi migratsiya jarayonlari misolida dalillash mumkin. 1962 – yil mustaqillikni qo‘lga kiritilishi va Evian shartnomasi ta‘sirida jazoirlar migrantlar soni tezlik bilan o‘sa boshlagan. 1962 – yil Fransiya va Jazoir hukumatlari hamkorlikda Fransiyada Jazoir fuqarolari harakatini kafolatlash, tartibga solish va qo‘llab – quvvatlashni nazarda tutuvchi tashkilot ONAMO (Office National de Main d‘Oeuvre) tashkil qildilar. 1968 – yilga kelib Jazoir migrantlarini qabul qilish bo‘yicha aniq kvota belgilab qo‘yildi va u dastlabki yillarda 35 ming nafar ishchi qilib belgilandi<sup>10</sup>.

Jazoir mustaqilligining ilk yillaridanoq Fransiyada jazoirlar soni tezlik bilan o‘sa boshladi. 1962 – yilda ularning soni 42 ming nafarni tashkil qilardi. Bu davrdagi migrantlar orasida amaldagi yangi o‘rnatilgan hukumatdan norozi bo‘lib mamlakatni tark etganlar soni ham ko‘pchilikni tashkil qilardi. Ularning aksar qismi siyosiy qochoqlar maqomida bo‘lib, ular bir vaqtlarda Fransiyadagi jazoirlar guruhlarini singari guruhlar tuzishgan va bu guruhlar “haraki” deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida Fransiya armiyasi tarkibida harakat qilgan jazoirlar erkaklardan iborat yordamchi guruh a‘zolari ham xuddi shunday “haraki” guruhlarini tuzishgan edi. 1962 – yil 42 mingga yaqin kishidan, asosan harbiy ta‘lim olganlardan, iborat bo‘lgan yangi “haraki” guruhi Parijda tashkil qilingan. Guruhga Jazoirda o‘rnatilgan amaldagi hukumatga qarshi bo‘lganlarning ommaviy qirg‘inidan qochib Fransiyaga kelganlar a‘zo bo‘lishgan. Guruh a‘zolari dastlab noqonuniy migrant sifatida qabul qilingan bo‘lsa keyinchalik ularga vaqtinchalik yashash huquqi berilgan, ularning ko‘pchiligi Fransiyada doimiy yashash huquqini keyinchalik qo‘lga kiritganlar<sup>11</sup>.

Fransiyada 1954 – yili 4 800, 1962 – yilda 27 ming va 1968 – yil 61 ming Tunislik migrantlar ro‘yxatga olingan. 1962 – yil Jazoir Fransiyaga islom missionerlari guruhi “Jamaat at–tablig”ni yuboradi maqsad migrantlar orasida islom dini arkonlarini mustahkam saqlash va boshqalar. “Jamaat at–tablig” ishtirokida 1969–yil “Islom diniy assotsiatsiyasi” (Association culturelle islamique) tashkil qilinadi maqsad musulmon migrantlarini birlashtirish va e‘tiqodini mustahkam

<sup>9</sup> Byrnes M.K. French like us? Municipal policies and north African migrants in the Parisian Banlieues 1945–1975. – Washington, DC: Dissertation submitted to the Faculty of the Graduate School of Arts and Sciences of Georgetown University, August 11, 2008. – P. 147.

<sup>10</sup> Мохова И. Иммиграция из Магриба во Францию: причины и следствия // Азия и Африка сегодня. – 2007. – № 12. – С. 37 – 41.

<sup>11</sup> North African migration systems: evolution, transformations and development linkages. – Oxford: University of Oxford, 2007. – P. 44.

saqlash. Tashkilot idorasi Belvilleda ( Parij yaqinidagi shaharcha) joylashgan edi keyinchalik uning vakolatxonolari Lion, Marsel va Ruanda ochiladi<sup>12</sup>.

1992 – yil boshlangan fuqarolar urushi bugungi kungacha bo‘lgan Jazoir migratsiya tarixidagi so‘ngi ta’sir bo‘lib turibdi. O‘n yilga yaqin davom etgan urush harakatlari natijasida yuz mingga yaqin jazoirliklar halok bo‘lgan bo‘lsa, yuz mingdan ortig‘i esa xorijga chiqib ketdilar.

Nafaqat Shimoliy Afrika balki butun Afrika qit’asida, shuningdek, Arab dunyosida alohida nufuzga ega bo‘lgan Misr Arab Respublikasi bugungi kunga kelib xalqaro migratsiya jarayonlarining faol ishtirokchilaridan biriga aylangan. Misrdagi migratsiya jarayonlari XX asrning so‘nggi choragidan boshlangan deyish mumkin. 1970 – yillargacha bo‘lgan davrda Misrda tashqi migratsiya qisman mavjud bo‘lgan, chunki 1971 – yilga qadar Misrda migratsiyaga nisbatan yuridik cheklov o‘rnatilgan edi. Migratsiya juda kam miqdorda malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib ular AQSH, Kanada, Avstraliya va G‘arbiy Yevropaga mehnat qilish uchun borishgan. 1973 – yil navbatdagi arab–isroil mojarosi va neft qazib oluvchi arab davlatlarining Isroil hamkorlariga nisbatan neft siyosati natijasida Fors Ko‘rfazi davlatlarida neft narxi keskin ko‘tariladi. Bu holat o‘z o‘rnida Misrdagi migratsiya jarayonlarida aks etdi. 1973 – yildan e’tiboran Misrdagi migratsiya jarayonlari faol tarzda boshlandi. Misr migratsiyasining faollashuvida A.Sadatning “ochiq eshiklar” siyosati ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Misrda migratsiya boshlangan dastlabki davrlarda u asosan uch yo‘nalishda harakatlangan. Birinchi yo‘nalish Liviyaga 1970 – yillarning boshlaridan boshlangan. Ikkinchi yo‘nalish 1970 – yillarning ikkinchi yarmidan Saudiya Arabistoniga yo‘naltirilgan. Uchinchi yo‘nalish 1984 – yildan Iroqqa yo‘naltirildi.

Misr uncha katta bo‘lmagan miqdordagi migrantlarni ham qabul qiladi. 1948 – yil birinchi arab – isroil mojarosining boshlanishi natijasida 70 000 falastinliklar Misrga qochib o‘tgan edi. Keyinchalik arab – isroil mojarosi tufayli Falastindan 5 millionga yaqin migrantlar misr hududida vaqtinchalik yoki doimiy yashash huquqiga erishganlar<sup>13</sup>. Shuningdek, Misrda Sudan, Efiopiya, Eritreya, Somali kabi Afrika davlatlarida minglab qochoqlar vaqtinchalik boshpana topishgan. 2001 – yil Iroqda boshlangan harbiy harakatlar va 2011 – yil Liviyada boshlangan harbiy harakatlar tufayli Misrga ushbu davlatlardan millionga yaqin qochoqlar kirib kelgan.

<sup>12</sup> Левин З.И. Мусульмане–иммигранты на Западе // Мусульмане на Западе. – Сборник статей. – ИИИиБВ. – М., 2002. – С. 3 – 18.

<sup>13</sup> Baldwin–Edwards M. Migration in the Middle East and Mediterranean: A paper prepared for the Policy Analysis and Research Programme of the Global Commission on International Migration / Mediterranean Migration Observatory, University Research Institute for Urban Environment and Human Resources, Panteion University. – Athens, Greece: MMO@panteion.gr, 2005. – 9 p.

Fors Ko'rfazidagi mamlakatlarida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining yuqorilab borishi, ishchi kuchiga bo'lgan doimiy yuqori talabning paydo bo'lishi Misrdan Fors Ko'rfaziga tomon bo'lgan migratsiya jarayonlariga ommaviy tus berdi. Shuningdek, 1990 – yillardan Liviyada boshlangan iqtisodiy o'sish ham Misr migrantlari uchun yangi yo'nalish bo'ldi. Bugungi kunga kelib Misr migrantlarining yo'nalish geografiyasi Fors Ko'rfazining boy davlatlari, Liviya, AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi va Avstraliyadir. 2010 – yil ma'lumotlarida 6.5 million misrliklar xorijda doimiy yoki vaqtinchalik yashayotganligi ma'lum qilingan. Ularning 74 foizi migrant maqomida bo'lib, 2009 – yil ma'lumotlariga ko'ra ulardan 30.9 foizi Liviyada, 20.1 foizi Saudiya Arabistonida, 9.8 foizi AQSH, 8.1 foizi Iordaniyada, 7.4 foizi Kuvaytda ro'yxatga olingan. Ma'lum davrlarda Misr migrantlarni qabul qiluvchi davlat sifatida ham o'rganilgan. 1948 – yilda Sudan, Efiopiya, Eritreya va Somali, shuningdek Iroqdan Misrga tomon doimiy migrantlar oqimi mavjud bo'lgan. Shuningdek, Isroil–Falastin mojarolari davrida 70 mingdan ortiq falastinliklar Misr hududlariga kirib kelishgan. 2011 – yil Liviyada boshlangan inqirozli vaziyat minglab migrantlarni Misr hududiga kirib kelishiga sabab bo'lgan<sup>14</sup>.

2000 – yil Misrning doimiy va vaqtinchalik emigrantlari soni 2,7 millionni yoki umumiy aholining 3.9 foizini tashkil qildi. Misr migrantlarining katta qismi arab davlatlarida ro'yxatga olingan, ulardan 33.7 foizi Saudiya Arabistonida, 12.2 foizi Liviyada, 8.3 foizi Iordaniyada shuningdek, 15.6 foizi Shimoliy Amerikada, 11.9 foizi Yevropada yashagan.

G'arbdagi Misr migrantlari o'zining bilim va malaka darajasining yuqoriligi bilan ham farqlanadi. 2000 – yil Yevropaga kelgan Misr migrantlarining 78,1 foizi oliy ma'lumotli malakali ishchilar bo'lgan va ularning 60.8 foizi yuqori malaka talab qilinadigan sohalarga jalb qilingan. Arab davlatlariga migratsiyada oliy ma'lumotga egalik darajasi nisbatan kamroq 2007 – yil ularning umumiy miqdori 62 foizni tashkil qilgan<sup>15</sup>.

## **XULOSA**

2011 – yil sodir bo'lgan va xalqaro jamoatchilik orasida “Arab bahori” nomi bilan mashhur bo'lgan inqilob ham Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi migratsiya jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Qochoq maqomida YEI davlatlariga kirib keluvchilarning soni tezlik bilan o'sa boshladi. Associated Press axborot agentligi tarqatgan ma'lumotlarga asoslanilsa, 2011 – yil YEI dan boshpana so'ragan qochoqlar soni 302 ming nafarni tashkil qilgan, 2010 – yilga nisbatan 2011 – yilda “qochoq” maqomini so'rab murojat qiluvchilar soni 16,2 foizga oshgan. Shu o'rinda

<sup>14</sup> Migration Policy Centre [www.migrationpolicycentre.eu](http://www.migrationpolicycentre.eu)

<sup>15</sup> CARIM – Consortium for Applied Research on International Migration [www.carim.org](http://www.carim.org).

tarixiy tadqiqotlarda migratsiya jarayonlarining roli naqadar muhimligi, ya'ni har qanday siyosiy inqiloblarning natijasi o'laroq migratsiya jarayonlarining boshlanishiga yana bir karra amin bo'lish mumkindir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Achrati N. Following the Leader: a History and Evolution of the Amir abd al-Qadir al-Jazairi as Symbol // The Journal of North African Studies. – 2007. – Vol. 12, № 2, June. – P. 59.
2. Byrnes M.K. French like us? Municipal policies and north African migrants in the Parisian Banlieues 1945 – 1975. – Washington, DC: Dissertation submitted to the Faculty of the Graduate School of Arts and Sciences of Georgetown University, August 11, 2008. – P. 35 – 147.
3. Stora B. Algeria 1830–2000: A Short History. – Ithaca and London: Cornell University Press, 2001. – P. 43 – 48.
4. Любарт М.К. Арабы–мигранты в современной Франции // Меняющаяся Европа. Проблемы этнокультурного взаимодействия. – М., 2006. – Сс. 257–258.
5. Левин З.И. Мусульмане–иммигранты на Западе // Мусульмане на Западе. – Сборник статей. – ИИИиБВ. – М., 2002. – С. 3 – 18.
6. Деминциева Е.Б. Магрибинское сообщество во Франции: формирование диаспоры и политика интеграции // Восток (Orient). – 2008. – № 1. – С. 83.
7. Мохова И. Иммиграция из Магриба во Францию: причины и следствия // Азия и Африка сегодня. – 2007. – № 12. – С. 37 – 41.
8. North African migration systems: evolution, transformations and development linkages. – Oxford: University of Oxford, 2007. – P. 44.
9. Baldwin–Edwards M. Migration in the Middle East and Mediterranean: A paper prepared for the Policy Analysis and Research Programme of the Global Commission on International Migration / Mediterranean Migration Observatory, University Research Institute for Urban Environment and Human Resources, Panteion University. – Athens, Greece: MMO@panteion.gr, 2005. – 9 p.
10. Migration Policy Centre [www.migrationpolicycentre.eu](http://www.migrationpolicycentre.eu)
11. CARIM – Consortium for Applied Research on International Migration [www.carim.org](http://www.carim.org).